

ZAMONAVIY OILADA NOGIRONLIGI BO‘LGAN FARZAND TARBIYASINING YANGICHA YONDOSHUVLARI.

Denov tuman Inson ijtimoiy xizmatlar markazi direktori

Jumayev Erkin Hasanovich.

Inson ijtimoiy xizmatlar markazi mutaxassisi

Daminova Dildora Melimurodovna

dildoradaminova9@gmail.com+911369684

Annotatsiya. Zamonaviy oilada nogironligi bo‘lgan farzand tarbiyasi masalasi bugungi kunda juda dolzarb bo‘lib, ijtimoiy, pedagogik va texnologik jihatdan yangicha yondashuvlarni talab etadi. Bunday farzandlarning to‘laqonli hayot kechirishi, ta‘lim-tarbiya olishi va jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi uchun oilaning, ayniqsa ota-onalarning roli muhimdir. Inklyuziv ta‘lim tamoyillari asosida sog‘lom va nogiron farzandlarning birgalikda rivojlanishiga imkoniyat yaratish, zamonaviy texnologiyalar va psixologik qo‘llab-quvvatlov vositalari orqali nogiron farzandlarning salohiyatini yuzaga chiqarish zamonaviy tarbiyaning asosiy yo‘nalishiga aylangan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida bu borada qonunchilik asoslari va davlat siyosatining izchil yo‘lga qo‘yilishi mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

Kalit so‘zlar: Nogiron farzand, zamonaviy oilaviy tarbiya, inklyuziv ta‘lim, psixologik qo‘llab-quvvatlash, reabilitatsiya texnologiyalari, kommunikatsion texnologiyalar, ijtimoiy integratsiya, moslashtirilgan ta‘lim, oilaviy hamkorlik, texnologik vositalar.

Аннотация. Вопрос воспитания детей с ОВЗ в современной семье сегодня очень актуален и требует новых социально-педагогических и технологических подходов. Роль семьи, особенно родителей, важна для того, чтобы такие дети могли жить полноценной жизнью, получать образование и успешно интегрироваться в общество. Создание возможностей для совместного развития здоровых и детей с ограниченными возможностями здоровья на основе принципов инклюзивного образования, раскрытие потенциала детей с ограниченными возможностями здоровья с помощью современных технологий и средств психологической поддержки стало основным направлением современного воспитания. Кроме того, последовательное внедрение законодательных основ и государственной политики в этом направлении в Республике Узбекистан еще больше повысит актуальность темы.

Ключевые слова: ребенок-инвалид, современное семейное воспитание,

инклюзивное образование, психологическая поддержка, реабилитационные технологии, коммуникационные технологии, социальная интеграция, адаптированное обучение, семейное сотрудничество, технологические инструменты

Annotation. The issue of raising a child with a disability in a Modern Family is very relevant today and requires new approaches in social, pedagogical and technological terms. The role of the family, especially parents, is important for such children to live a full life, receive education and successfully integrate into society. The creation of an opportunity for the joint development of healthy and disabled children on the principles of inclusive education, the emergence of the potential of disabled children through modern technologies and means of psychological support have become the main focus of modern education. Also in the Republic of Uzbekistan, the consistent implementation of legislative principles and state policy in this regard will further increase the relevance of the topic.

Keywords: disabled child, Modern Family Education, inclusive education, psychological support, rehabilitation technologies, communicative technologies, social integration, personalized education, family cooperation, technological tools

Nogironligi bo‘lgan farzandlar har bir oilaning alohida e‘tibor, mehr va sabr bilan yondoshishi lozim bo‘lgan a‘zolaridir. Zamonaviy dunyoda bunday farzandlarni tarbiyalashda ota-onalarning roli yanada kuchaymoqda. Yangi pedagogik, psixologik va texnologik yondoshuvlar yordamida ularning jamiyatga integratsiyasi va to‘laqonli hayot kechirishlari uchun sharoitlar yaratilmoqda. Inklyuziv tarbiya tamoyillari-hozirgi kunda zamonaviy oila tarbiyasida nogiron farzandlar uchun inklyuziv yondoshuv asosiy tamoyillardan biridir. Bu yondoshuv ularni ajratmasdan, sog‘lom farzandlar bilan bir qatorda ijtimoiy va ta‘limiy faoliyatlarga jalb qilishni nazarda tutadi. Inklyuziv ta‘lim hamma bolalarning bir xil maktab va bir xil sinfxonada – bir xil sharoitda ta‘lim olishini [anglatadi](#). Ya‘ni imkoniyati cheklangan bola sog‘lom bolalar bilan bir xil e‘tiborda o‘qiy olishi kerak. O‘zbekistonda oilaviy sharoitidan qat‘i nazar, barcha bolalar davlat umumta‘lim maktablariga qatnaydi. Bu davlat tomonidan kafolatlangan.

Mamlakatimizda yangi tahrirdagi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi ham bu boradagi muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Xususan, Qonunning 20-moddasida: “Inklyuziv ta‘lim alohida ta‘lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta‘lim oluvchilar uchun ta‘lim tashkilotlarida

ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan" – deb keltirib o'tilgan [1].

Amerikalik olimlar inklyuziv ta'limni ommaviy maktabni rivojlanish muammolari bo'lgan oddiy bolalar va bolalarning birgalikdagi ta'lim vazifalari va ehtiyojlariga tubdan o'zgartirish deb qaraydilar. Yevropa mamlakatlarida esa, xususan nemis tilida so'zlashadigan mamlakatlarda "inklyuziya" atamasi nisbatan kam qo'llaniladi. Ular "integratsiya", "hamkorlikda o'rganish" atamalaridan foydalanishda davom etmoqdalar.

Ota-ona uchun o'z farzandidan-da qadrliroq ne'mat bo'lmasa kerak. Ota ham, ona ham o'z farzandlari uchun faqat yaxshilikni ravo ko'radi. Ularning baxtu saodati uchun yashaydilar va mehnat qiladilar. Farzandlar esa buni o'z vaqtida sezishlari va tushunishlari hamda o'zlari uchun yaratilayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalanishga harakat qilishlari lozim. Ota-onalar, hatto bolalarining rivojlanishida biron-bir o'qish yoki tengdoshlari bilan muloqot qilishda muammolarni ko'rsalar ham, ko'pincha unga qanday yordam berishni bilmaydilar. Muammoni payqamaslik – bu imkoniyat emas, bu faqat bolaning axloqiy tushkunligini kuchaytiradi.

Imkoniyati cheklangan bolalari mavjud bo'lgan oilaga alohida e'tibor talab qilinadi. Eng avvalo, ota-onalar bunday bolalarga qanday g'amxo'rlik qilishlari bo'yicha alohida tavsiyalar ishlab chiqiladi. Har bir imkoniyati cheklangan bola bilan pediatr, o'qituvchi, psixolog, nevropatolog, defektolog logoped, terapevt kabilar ish olib boradi. Oila bilan ishlashning eng asosiy maqsadi – barcha oila a'zolarining jismoniy, ruhiy, ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy, intellektual shaxsiy rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, har tomonlama ma'naviy ko'mak berish, shuningdek, bola va uning atrofini turli xil omillarning shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta'siridan himoya qilishdan iboratdir. Oilada farzandga shaxs sifatida hurmat bilan qarash ularning imkoniyatlariga mos sharoit yaratish, ijtimoiy izolyatsiyadan saqlash lozimdir. Texnologik vositalardan foydalanishda zamonaviy texnologiyalar nogiron farzandlar tarbiyasida katta rol o'ynamoqda. Kommunikatsion texnologiyalar masalan, eshitish yoki gapirish imkoniyati cheklangan bolalar uchun mobil ilovalar, audiokitoblar, braille alifbosi bilan jihozlangan qurilmalar. Reabilitatsiya qurilmalari robotlashtirilgan nogiron aravachalari, ortopedik moslamalar. Ta'lim platformalari moslashtirilgan onlayn kurslar, maxsus videodarslar orqali jamiyatga moslashuvchanlik ortadi. Bundan tashqari psixologik qo'llab-quvvatlashda ota-onalar nogiron farzandlar bilan ishlashda psixologik tayyorgarlikka ega bo'lishi lozim. Buning uchun psixologik treninglar va maslahatlar, oilaviy terapevtlar yordami, ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish lozim. Ushbu yondoshuvlar nafaqat bolaga,

balki butun oilaga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy integratsiya va mustaqillikni rivojlantirish nogiron farzandlarni mustaqil hayotga tayyorlash zamonaviy tarbiyaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ularni kundalik hayot faoliyatlariga jalb qilish uy ishlarida yordam, xarid qilish, transportdan foydalanish, maxsus ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish muloqot, qaror qabul qilish, himoya qilish ularni jamiyatda to'laqonli ishtirokchi sifatida ko'rish lozimdir. Davlat va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikda ota-onalar zamonaviy jamiyatda nogiron farzandni tarbiyalashda yakkama-yakka qolmasligi kerak. Bugungi kunda ko'plab tashkilotlar yordamchi dasturlar, grantlar, bepul rehabilitatsiya markazlari va treninglar taklif qilmoqda. Nogironligi bo'lgan bolani texnologik vositalardan foydalanish ularning tarbiyasini va hayot sifatini sezilarli darajada yaxshilashga yordam beradi. Bugungi kunda texnologiyalar nogiron bolalarni o'qitish, rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy integratsiyalashishda samarali vosita sifatida keng qo'llanilmoqda. Nogiron farzandlarni tarbiyalashda quyidagi texnologik vositalardan foydalanish mumkin. Kommunikatsiya texnologiyalari- nogironligi bo'lgan bolalar bilan samarali muloqot qilish uchun zamonaviy texnologiyalar turli usullarda yordam beradi. Eshitish imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun audiovizual vositalar bularga audiokitoblarni misol qilib olsak bo'ladi, gapirishni o'rgatish ilovalari va boshqa dasturlar bolalar uchun muhim axborotni eshitish orqali olish imkoniyatini yaratadi. Tildan foydalanish imkoniyati cheklangan bolalar uchun alternativ kommunikatsiya tizimlari. Bu texnologiyalar maxsus dasturlar va qurilmalar orqali, masalan, iPadlar yordamida nutqsiz bolalar uchun vizual yoki tasvirli kommunikatsiya imkoniyatini yaratadi. "Proloquo2Go" dasturi - tilni tushunish va ifodalash uchun juda foydali vosita. Braille texnologiyalari- ko'rish qobiliyati cheklangan bolalar uchun Braille yozuvi orqali o'qish imkonini beruvchi texnologiyalar mavjud. Braille printerlari va ekran o'qish dasturlari ko'rish imkoniyati bo'lmagan bolalarga kitoblarni o'qish va o'rganishni ta'minlaydi. Rehabilitatsiya va fizioterapiya texnologiyalari nogiron bolalar uchun rehabilitatsiya va fizioterapiya muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalar bu jarayonni yengillashtirishga yordam beradi. Robotik rehabilitatsiya tizimlari masalan, nogiron bolalar uchun maxsus robotlar yoki mexanik qurilmalar yordamida oyoq yoki qo'l harakatlarini tiklashga yordam beriladi. Bu texnologiyalar bolalar uchun harakatlarni o'rganish va qo'llarini, oyoqlarini harakatlantirishni ta'minlaydi. Virtual rehabilitatsiya tizimlari virtual haqiqat (VR) texnologiyalari yordamida bolalar uchun rehabilitatsiya mashqlari yoki jismoniy terapiya maxsus o'yinlar shaklida taqdim etilishi mumkin. Bu o'yinlar bolalarga qiziqarli va motivatsion tarzda terapiya olish imkoniyatini beradi. Ta'lim texnologiyalari nogiron

bolalar uchun ta'lim tizimi ham texnologiyalardan samarali foydalanishni talab qiladi. Moslashtirilgan onlayn kurslar zamonaviy ta'lim platformalari nogiron bolalar uchun maxsus moslashtirilgan o'quv dasturlarini taklif etadi. Bu kurslar vizual va eshitish materiallariga moslashgan holda ishlab chiqiladi. Interaktiv o'quv dasturlari o'yinlar yoki interaktiv ilovalar orqali bolalar ko'plab bilimlarni o'rganishlari mumkin. Misol uchun, "Learning Ally" kabi ilovalar ko'rish yoki eshitish imkoniyati cheklangan bolalar uchun kitoblarni o'qishga yordam beradi. Ijtimoiy integratsiya va muloqot texnologiyalari nogiron bolalarning jamiyatga integratsiyasini ta'minlash uchun ijtimoiy muloqot vositalari va texnologiyalardan foydalanish juda muhim. Ijtimoiy tarmoqlar va maxsus platformalar nogironligi bo'lgan bolalar va ularning oilalari uchun ijtimoiy tarmoqlarda maxsus guruhlar va forumlar mavjud. Bu platformalar ularga bir-biri bilan muloqot qilish, tajriba almashish va bir-birlariga yordam berish imkonini beradi. Onlayn terapiya xizmatlari masofaviy psixologik yordam va terapiya xizmatlari nogiron farzandlar uchun uyda o'tirgan holda ruhiy va psixologik yordam olish imkoniyatini yaratadi.

Harakatlarni qo'llab-quvvatlovchi texnologiyalar nogiron bolalarga harakatlarida yordam beruvchi texnologiyalar harakatlarini yaxshilash va mustahkamlashga xizmat qiladi. Nogiron aravachalari va protezlar texnologiyalar yordamida yaratilgan ilg'or nogiron aravachalari va protezlar bolalarga harakat qilishda mustaqillikni ta'minlaydi. Masalan, exoskeletons kengaytirilgan tashqi skeletlar bolalarga o'z qo'llari yoki oyoqlarini harakatlantirishda yordam beradi. Sensorli moslamalar va o'lchov qurilmalari. Maxsus sensörlar orqali bolalar o'z harakatlarini kuzatib borishlari va ularni to'g'ri bajarishlari mumkin. Bu texnologiyalar ularga jismoniy mashqlarni samarali bajarishga yordam beradi.

Xulosa .Zamonaviy oilada nogiron farzandni tarbiyalash – bu faqat kundalik parvarish emas, balki chuqur ijtimoiy, pedagogik va texnologik yondoshuvlarni talab qiladigan jarayondir. Har bir bola – qanday imkoniyatlarga ega bo'lishidan qat'iy nazar – o'z salohiyatini yuzaga chiqarish huquqiga ega. Oilaviy muhit esa bunga yo'l ochadigan eng muhim omillardandir. Zamonaviy texnologiyalar nogironligi bo'lgan bolalar uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ular nafaqat kundalik hayotda yordam berishi, balki ta'lim, ijtimoiy integratsiya va rehabilitatsiya jarayonlarida ham o'z o'rnini topmoqda. Shuningdek, ota-onalar va pedagoglarning bu texnologiyalarni bilish va foydalanishlari farzandlarining rivojlanishiga yordam beradi. Texnologiya yordamida nogiron bolalar uchun hayot yanada boy va rang-barang bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020 yil 23 sentabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi qarori. 2021-yil.
3. A.П.Усова. “Роль игра в воспитании детей”, под ред. А.В.Запорожца. – Москва.: Просвещение, 1976 г.
4. К.П.Беккер, М.Совак. “Логопедия”, Москва, Издательство: Медицина, 1981 г
5. “Inklyuziv ta’limning dolzarb masalalari muammo va ularning yechimlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Toshkent – 2021 yil.
6. UNESCO. Inclusive Education: The Way of the Future. International Conference on Education, 48th Session. 2008.
7. American Psychological Association (APA). Parenting Children with Disabilities: A Guide for Practitioners. 2019.
8. Proloquo2Go rasmiy veb-sayti: <https://www.assistiveware.com>
9. Learning Ally ta’lim platformasi: <https://learningally.org>